

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**DAVLAT MUASSASALARINI ISLOH QILISHNI JADALLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI  
TO'G'RISIDA**

Davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish, davlat muassasalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv usullari, ochiqlik, shaffoflik tamoyillarini joriy etish hamda xususiy kapital ishtiroki uchun keng imkoniyatlar yaratish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va raqobat muhitini yaratish maqsadida:

1. Belgilansinki:

a) bir tovar bozorida beshta va undan ortiq xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritib kelayotgan, raqobat rivojlangan sohalarda faoliyat yuritayotgan davlat muassasalari tugatiladi yoki xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirilgan holda xususiy sektorga sotiladi;

b) davlat muassasalari majburiy tartibda Yagona g'azna hisobvarag'ida shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega bo'ladi;

v) 2022-yil 1-apreldan boshlab:

vazirlik va idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z rasmiy veb-saytlarida o'zlarining tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funktsiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtiradi va uning doimiy ravishda yangilab borilishini ta'minlaydi;

davlat muassasalarining hududlar va yuqori turuvchi organlari kesimidagi ma'lumotlar Davlat aktivlarini boshqarish agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) veb-saytiga joylashtiriladi;

Ochiq ma'lumotlar portalida foydalanuvchilar uchun qulay formatlarda ko'rish imkoniyatini yaratgan holda muassasalarning yuqori turuvchi tashkiloti, ko'chmas mulk obyektlari, qurilishi tugallanmagan obyektlar va avtotransport vositalari, rejalashtirilgan va amalga oshirilgan xarajatlar tarkibi haqidagi va boshqa ma'lumotlarni (bundan tijorat siri mavjud yoki cheklangan holda tarqatiladigan ma'lumotlar mustasno) e'lon qilish amaliyoti joriy etiladi;

g) davlat muassasalarini tashkil etish to'g'risidagi qarorda hamda muassasa ustavi (nizomi)da uning tashkiliy-huquqiy shakli "davlat muassasasi" ekanligi ko'rsatiladi;

d) xo'jalik jamiyatlari ustav fondi (ustav kapitali)dagi davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat unitar korxonalari, davlat muassasalari, Markaziy bank hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tegishli aksiyalar va ulushlar davlat ulushlari hisoblanadi;

e) davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlariga tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining ustav fondi (ustav kapitali)dagi ulushlar va aksiyalar davlat ulushi hisoblanmaydi.

2. Agentlik, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va Moliya vazirligining quyidagi takliflari ma'qullansin:

mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo'lgan davlat muassasalarini 2022-yil 1-martdan 2023-yil 1-avgustga qadar eksperiment tariqasida tashqi, shu jumladan mol-mulkning mavjudligi, majburiyatlar bajarilishining amaldagi holati va oqibatlarini o'rganish masalalari yuzasidan auditorlik tekshiruvidan o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari davlat muassasalariga xo'jalik jamiyatlarini ta'sis qilishni hamda ularning ustav fondi (ustav kapitali)da ishtirok etishni taqiqlash.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Adliya vazirligi va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ushbu bandning **uchinchi xatboshisida** belgilangan talablarga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin.